

**“O’ZBEK MUSIQA ADABIYOTI”NI O’QITISH
MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI**

Sobirova Gulxayo Aktamjonovna

Farg’ona viloyati Rishton tumani 21-BMSM o’qituvchisi

*Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlari doktori,
professor T.B.G’ofurbekov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablari o’quv rejasidan o’rin olgan “O’zbek musiqa adabiyoti” fanini o’qitishda uchrayotgan muammolar yoritilgan. Maqolaning obyekti sifatida 2019-yilda ishlab chiqilib, ayni vaqtga qadar amliyotda qo’llanilayotgan “O’zbek musiqa adabiyoti” fanining dasturi tahlil qilinib, undagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar va “Musiqa adabiyoti” kursining uchinchi o’quv yili uchun mavzular rejasi ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: Musiqa adabiyoti, dastur, bastakor, kompozitor, maqom, o’zbek xalq musiqa ijodiyoti, janr.

**PROBLEMS AND PROSPECTS OF TEACHING
"UZBEK MUSIC LITERATURE"**

Sobirova Gulxayo Aktamjonovna

teacher at children’s music and
art schools №21 in Rishtan district, Fergana region

Scientific advisor: doctor of art studies,
professor T.B.Gafurbekov

Annotation: This article describes the problems encountered in teaching the subject "Uzbek music literature" included in the curriculum of children's music and art schools. As the object of the article, the program of the subject "Uzbek music literature" developed in 2019 and used in practice until now was analyzed, suggestions aimed at eliminating its shortcomings and a plan of topics for the third academic year of the "Music literature" course were developed.

Keywords: Music literature, program, composer, composer, maqom, uzbek folk music creativity, genre.

“Musiqa adabiyoti” kursining asosiy qismi bo’lgan “O’zbek musiqa adabiyoti” fani o’quvchilarga O’zbekiston musiqa san’ati va madaniyati haqidagi ma’lumotlarni bilishlari uchun imkon beruvchi fan bo’lib, bolalar musiqa va san’at maktablarining 7

yillik ta’lim yo’nalishlariga 6-7-sinflarda, 5 yillik ta’lim yo’nalishlariga 4-5-sinflarda 2 yil davomida o’tiladi¹.

2019-yilda ishlab chiqilib, ayni vaqtga qadar amliyotda qo’llanilayotgan “Musiqa adabiyoti” fanining dasturiga muvofiq uchinchi o‘quv yilining birinchi yarmyilligi ya’ni birinchi va ikkinchi choraklari “Jahon madaniyati va tarixi”ni o’rganishga qaratilgan. Uchinchi chorakdan boshlab o’zbek musiqa tarixiga oid mavzular bayon etiladi. To’rtinchi o‘quv yili “O’zbek musiqa adabiyoti” bo’lib, unda M.Ashrafiy, T.Sodiqov, R.Glier, M.Burxonov, S.Yudakov, I.Akbarov, S.Varelas, R.Hamroyev, M.Tojiyev, U.Musayevlar hayoti va ijodi o’rganiladi. Shuningdek, O’zbekiston zamonaviy kompozitorlari hayoti va ijodiy merosini o’rganishga o‘quv rejada bir soatgina vaqt ajratilgan. Aynan “O’zbek musiqa adabiyoti”ni o’rganishda soatlar taqsimoti va tinglash uchun nomlari keltirilgan musiqiy materiallar tanlovida kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Fanning maqsadiga erishish uchun eng avvalo yillik o‘quv rejani to‘g‘ri tuzish zarur. Bu borada ayniqsa “O’zbek musiqa adabiyoti” fani birlamchi o‘rinda turadi. Chunki, O’zbekistonda yashab ta’lim ta’rbiya olayotgan har bir o‘quvchi o‘z yurtining musiqiy merosi, shu sohada samarali ijod qilgan va qilayotgan buyuk shaxslari, O’zbekistonni jahon madaniyatida tutgan o‘rni, musiqa soxasidagi yutuq va kamchiliklari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishlari shart albatta. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda “Musiqa adabiyoti” kursining uchinchi va to’rtinchi o‘quv yili uchun mo‘ljallangan fan dasturlariga (mavzular, soatlar taqsimoti, tinglash uchun musiqiy materiallar) musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori, professor T.B.G’ofurbekov ko’rsatmalari bilan o’zgartirish va qo’shimchalar kiritdik.

“Musiqa adabiyoti” dasturining mazmunida yozilishicha “Jahon madaniyati va san’ati tarixi” fani bo‘yicha soatlar kiritilishi zarurati bilan tarixiy materiallar birmuncha ixchamlashtirilgan. Uchinchi o‘quv yilining birinchi yarmyilligida “Jahon san’ati tarixi” fanini o’rganishga bag‘ishlanishi tavsiya qilinadi². Kursning nomi, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda “Jahon san’ati tarixi” faniga tegishli mavzularni “Musiqa adabiyoti” dasturiga kiritilishi noo‘rin tavsiya ekanligini ta’kidlagan holda, O’zbekiston davlat konservatoriyasi professori, san’atshunoslik fanlari doktori T.B.G’ofurbekov “Jahon musiqa tarixi”ni o’rganishni oliy ta’lim muassasalariga qoldirish joizligini aytadilar. Uchinchi o‘quv yilining 4 – choragi uchun berilgan dars soatlari mavzularning murakkablik darajasini inobatga olmay

¹ Aniq hisobda biryaram yil.

²M.B.Agayeva, I.Y.Sivaya, Y.M.Kaplina, L.L.Demidova, N.D.Halimova, Sh.X.Djalolova. BMSM uchun “Musiqa adabiyoti” fani dasturi.T.,2019. 9 –bet.

taqsimlangan ya’ni Sharq xalqlarining musiqiy merosi – maqomlar va Shashmaqomni o‘rganilishi uchun bir soat vaqt ajratilgan. Farg‘ona – Toshkent va Xorazm maqomlarini ham bolalar 45 daqiqada o‘zlashtirishlari rejalashtirilgan. Murakkab (mazmun va shakl) chuqur falsafiy mazmunga ega, uzoq o‘tmish bastakorlik ijodi maxsuli bo‘lgan og‘zaki an’anadagi professional musiqaning yetuk namunasi o‘zbek maqomlarini nazariy va amaliy o‘rganishni keng targ‘ib qilish va yosh avlodni milliy ruxda tarbiyalash masalasi isloh qilinib turgan bir paytda, musiqa maktablarida maqomlar (Shashmaqom, Farg‘ona – Toshkent va Xorazim)ni o‘rganish uchun 2 soatgina ajratilishi juda oz fursat.

O‘zbekistonda bastakorlik ijodi kompozitorlik ijodidan avvalroq shakllanib, o‘zbek ohanglariyu, ijodkorlari (xonanda va sozandalar)ni jahonga tanitgan. Bugungi kunda ham har ikki ijod, har ikki tafakkur (bir ovozli va ko‘p ovozli) parallel ravishda rivojlanib kelmoqda. Biroq, dasturda bastakorlar ijodini ikki soat dars doirasida Yu.Rajabiy va T.Jalilovlar ijodi misolida o‘rganish rejaga kiritilgan. Ma’lumki, bastakorlar serqirra ijodkorlar bo‘lib, ular eng avvalo yetuk xonanda va sozandalar bo‘lishgan. Demakki, bastakorlarimiz nafaqat yaratuvchi balki milliy ohanglarimiz targ‘ibotchilari hamdir. O‘zbek musiqasida salmoqli o‘rinni egallagan mazkur soha vakillari va ularning ijodiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan soatlarni ko‘paytirish zarur deya hisoblab, **musiqa maktablarida “Musiqa adabiyoti” kursining uchinchi o‘quv yili birinchi yarimyillik rejasidan o‘rin olgan “Jahon madaniyati va san’ati tarixi”ga tegishli soatlarni olib tashladik va bo‘sh qolgan soatlar (13 soat) o‘rnini ikkinchi yarimyillikda berilgan “O‘zbek musiqa adabiyoti”ga oid mavzularni murakkablik darajasiga qarab to‘g‘ri taqsimlash bilan to‘ldirdik.**

Shunday qilib, uchinchi o‘quv yili “O‘zbek musiqa adabiyoti” mavzularining namunaviy yillik rejasini qayta tuzib chiqdik. Unga ko‘ra o‘quv yilining **I yarimyilligi** “O‘zbek folklor musiqasi va og‘zaki an’anadagi professional musiqa” deb nomlangan bo‘lib, **birinchi chorakda** o‘zbek xalq musiqa ijodiyoti ya’ni folklor musiqasi va uning xususiyatlari, janrlari haqidagi bilimlar egallanishi nazarda tutilgan. Shu bois, o‘zbek musiqa adabiyoti kursini XIX–asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekiston musiqa madaniyatida ro‘y bergen muhim voqeliklar haqidagi mavzu bilan boshladik. Og‘zaki an’anadagi o‘zbek musiqasi – xalq ijodining umumnazariy asoslari, uning amaliy va noamaliy janrlari, bolalar folklor musiqasi, O‘zbekistonda mavjud mahalliy (lokal) uslublar haqidagi tarixiy nazariy ma’lumotlarni bilish va musiqiy na’munalarni tinglab idrok etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari ko‘zda tutilgan. **Ikkinchi chorakda** o‘zbek mumtoz musiqasi va uning xususiyatlari, janrlari tasnifi, cholg‘u musiqasi, mumtoz yalla va ashula, katta ashula, doston janrining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish, musiqiy namunalarni tinglash orqali janrlarni bir biridan farqlash ko‘nikmasi shakllantirilishi belgilangan. O‘quv yilining **II yarimyilligi** o‘zbek maqomlari va bastakorlik ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, **uchinchi chorakda** o‘quvchilar

maqomlarning o‘zbek musiqa madaniyatida tutgan o‘rni, tarixiy, nazariy asoslari, Shashmaqom va uning cholg‘u (mushkilot) hamda ashula (nasr) yo‘llari, maqom cholg‘u kuylari va ashulalarining shakl tuzilishi, Farg‘ona –Toshkent va Xorazm maqomlari, o‘zbek mumtoz musiqasining yetuk ijrochilar (xonanda va sozandalar), milliy musiqa cholg‘ulari va ansambllari, o‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari va orkestri haqida umumnazariy tushunchalarga ega bo‘lishlari va amaliyot bilan bog‘liq holada (maqom ijrochilarining konsert dasturlariga, Xalq cholg‘ularining orkestr, An’anaviy ijrochilik bo‘limining ansambl darslariga tashrif doirasida) mavzularni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan. **To‘rtinchichorakda** esa o‘zbek an’anaviy musiqasida ulkan o‘rin tutgan bastakorlik ijodining qisqacha tarixiga yuzlanib, T.Jalilov, Yu.Rajabiy, M.Mirzayev, G’.Toshmatov, F.Sodiqov, zamondosh bastakorlarimizdan - Sh.Yormatov, A.Ismoilov, A.Dadayev, O’.Rasulovlarning ijodini o‘rganish maqsadi qo‘yildi. Quyida “O‘zbek musiqa adabiyoti” fanidan o‘tilishi zarur bo‘lgan mavzular nomlari va soatlar taqsimotini keltirdik.

UCHINCHI O’QUV YILI **O‘zbek musiqa adabiyoti**

6 – sınıf (7 yıllık ta’lim), 4 – sınıf (5 yıllık ta’lim)lar uchun yıllık mavzular rejası

Nº	Dars mavzulari	Dars soatlari
1.	Kirish. XIX – asr oxiri XX asr boshlarida O‘zbekiston musiqa madaniyati. O‘zbek an’anaviy musiqasi va uning janrlari tarkibi.	2
2.	Xalq musiqasining umumnazariy masalalari. Mehnat va marosim va qo‘schiqlari. Noamaliy janrlari va bolalar folklori. Lokal (mahalliy) uslublar.	6
3.	O‘zbek mumtoz musiqasi va uning xususiyatlari. Janrlari tasnifi. Cholg‘u musiqasi. Mumtoz yalla va ashula janrlari. Katta ashula va doston janri.	5
4.	Maqomlar. Shashmaqom. Cholg‘u (mushkilot) va ashula (nasr) yo‘llari. Maqomlarning shakli. Farg‘ona –Toshkent va Xorazm maqomlari. O‘zbek mumtoz musiqasi ijrochilar (xonanda va sozandalar). O‘zbek mumtoz musiqasi ijrochilar (xonanda va sozandalar). Milliy musiqa cholg‘ulari va ansambllari. O‘zbek xalq musiqa cholg‘ulari va orkestri.	9
5.	O‘zbek bastakorlik ijodi o‘tmish va hozirgi zamон. T.Jalilov, Yu.Rajabiy, M.Mirzayev, G’.Toshmatov, F.Sodiqov. Zamondosh bastakorlar ijodi: Sh.Yormatov, A.Ismoilov, A.Dadayev, O’.Rasulov	8
6.	Nazorat darsi	4
7.	I va II yarimyillik uchun yakuniy dars	2
	Jami	36

Ushbu “O’zbek musiqa adabiyoti”ni o’qitish muammolari va istiqbollari” nomli maqolamizda “O’zbek musiqa adabiyoti” fanining dasturiy muammolarigagina yuzlandik. Bolalar musiqa va san’at maktablarida ushbu fanni o’qitish jarayonida tashkiliy va uslubiy muammolar ham yetarli darajada. Biroq, eng avvolo biz tahlil etgan dasturiy muammolarni hal etish orqali mazkur fan oldiga qo’yilgan maqsad va vazifalarga erishish imkoniyati ochiladi hamda fanga doir o’quv qo’llanma, darsliklarni yaratilishi va ta’lim jarayoniga tadbiq qilinishi orqali, shuningdek, musiqiy materiallar (asarlarning audio va video yozuvlari) to’plami bilan ta’minlanishi bilan bir qator tashkiliy va uslubiy muammolar ham bartaraf etiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yhati:

1. O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 766-son “Bolalar musiqa va san’at maktablarining ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv rejalarini hamda o’quv rejalariga tushuntirishlarni tasdiqlash to’g’risida”gi buyrug’i. Toshkent sh., 2019-yil 30-dekabr.
2. M.B.Agayeva, I.Y.Sivaya, Y.M.Kaplina, L.L.Demidova, N.D.Halimova Sh.X.Djalolova. BMSM uchun “Musiqa adabiyoti” fani dasturi.T.,2019.
3. Sobirova G. Bolalar musiqa va san’at maktablarida “Musiqa adabiyoti” fanining o’qitish muammolari (Farg’ona viloyatidagi BMSMLar misolida). Farg’ona – 2022.